# BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARINING BILIMLARINI BAHOLASHDA MANTIQIY MASALALARNING O'RNI

***Abdulxayeva Musharraf Usmonjon qizi***

*QDPI Boshlang'ich ta'lim metodikasi kafedrasi o'qituvchisi*

***Abdurahmonova Umidaxon***

*QDPI Boshlang'ich ta'lim fakulteti 103-guruh talabasi*

**Annotatsiya**: Ushbu maqola "Boshlang'ich sinf o'quvchilarining bilimlarini baholashda mantiqiy masalalarning o'rni" deb nomlanib unda umumta'lim maktablarida matematika darslarida o'quvchilarning kompitensiyalarini baholashda mantiqiy masalalarning ahamiyti bayon etilgan.

**Kalit so'zlar:** Kompetensiya, matematika, mantiqiy fikrlash, matnli masala, baholash,

Bugungi kunning dolzarb masalasi, bilimli va ma'naviyatli yoshlarni yetishtirib chiqarish va iqtisodiyotimizni tubdan shakllantirib, rivojlangan davlatlar qatoriga qo'shishdir. Shu sababli ham yurtimizda iqtisodiyotni o'stirishga asoslangan tub islohotlar olib borilmoqda. Bularga misol qilib: islohotlar samarasini yanada oshirish, davlat va jamiyatning har tomonlama jadal rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratish, buning natijasida esa mamlakatimizda hayotning barcha sohalarini rivojlantirish bo'yicha turli ilmiy ishlar, siyosiy harakatlar olib borilmoqda. Bularning boshlang'ich asosini esa yosh avlodning maktab davridan boshlab to'g'ri ta'lim va tarbiya olish masalasi turadi. Ta'limning yangi sifati, avvalo, maktab, oila, jamiyat, davlat, o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi munosabatlar xarakterining o'zgarishi bilan bog'liq hisoblanadi. Ya'ni, o'quv jarayonini yangilash maktablarni ta'lim muvaffaqiyatini baholashda o'zgacha yondashuv asosida ishlashga yo'naltirish uchun mazmunli manbadir. Hozirda asosan psixologik va ayniqsa pedagogik adabiyotlarda "baholash" va "baho" tushunchalari aniqlanadi. Bundan

tashqari, ushbu tushunchalarni farqlash o'qituvchilarning baholash faoliyatining psixologik, pedagogik, didaktik va tarbiyaviy jihatlarini chuqurroq anglash uchun o'ta muhimdir. Avvalo, baholash - bu shaxs tomonidan amalga oshiriladigon faoliyati (yoki harakati). Bizning taxminiy va umuman har qanday faoliyatimiz baholashga bog'liq. Baholashning aniqligi va to‘liqligi maqsad sari harakatning ratsionalligini belgilaydi va harakatga undaydi. Barchamizga ma'lumki, baholash funktsiyalari faqat tayyorgarlik darajasini tasdiqlash bilan cheklanmaydi. Baholash o'qituvchini o'rganish, ijobiy motivatsiya va shaxsga ta'sirini rag'batlantirishning eng samarali vositalaridan biridir. Aynan obyektiv baholash ta'siri ostida maktab o'quvchilarida o'z-o'zini baholash, o'z yutuqlariga tanqidiy munosabat shakllanadi. Shuning uchun baholashning ahamiyati, uning funktsiyalarining xilma-xilligi maktab o'quvchilarining ta'lim faoliyatining barcha jihatlarini aks ettiradigan va ularning identifikatsiyasini ta'minlaydigan ko'rsatkichlarni izlashni talab etadi. Shu nuqtai nazardan qaraydigon bo'lsak, bilim va ko'nikmalarni baholashning amaldagi tizimi uning diagnostik qiymati va obyektivligini oshirish uchun qayta ko'rib chiqishni talab qiladi. Baholash jarayoni, baholashning faoliyati harakati, ularning shartli ravishda rasmiy aks etishi natijasidir. Ma'lumki, o'quvchilarning o'quv-bilish faoliyatini nazorat qilish natijalari uni baholashda ifodalanadi. Baholash bu avvalo biror bir ilmning darajasi yoki sifatini belgilash. Baholash - sifat ko'rsatkichi hisoblanadi. Baholash ta'limiy maqsadlarga qay darajada erishganligini namoyish qilish imkonini ham beradi. Baholash-o'lchash jarayoni: bunda asosan bilim, ko'nikma, kompetensiyalar o'lchanadi. Kompetensiya - insonning shaxsiy sifatlari uzviyligi (bilim, malaka, tajriba, faoliyat usullari) hisoblanadi va ma'lum bir doiradagi narsa va jarayonlarga nisbatan shaxsning munosabatida sifatli va samarali faoliyat yurgazishi hisoblanadi. Kompetenlik esa inson tomonidan faoliyat turlariga shaxsiy munosabatini bildiruvchi, talabga javob beradigan kompetensiyalar yig'indisiga ega bo'lishidir. Yuqoridagilarni hisobga olgan holda ayta olamizki, kompetensiya masalasi uning jamiyatdagi o'rni masalasidan qator bahslar davom etmoqda. Ta'lim-tarbiya sohasida asosiy universal kompetensiya unsurlarini anglab olish zamonaviy pedagogikaning eng asosiy muammolaridan biri deb

olamiz. Asosiy kompetensiya masalasida dunyo pedagoglari tajribasini tatbiq qilish yoki an'anaviy o'zbek pedagogikasi me'yorlaridan kelib chiqqan holda kompetensiya mezonlarini belgilashda fikrlar xilma-xil bo‘lib, hali yechilmagan masala va muommolar talaygina. "Kompetensiya - bilim, ko'nikma, malaka, qarashlar, individning qadriyati va shaxsiy sifatlari, kvalifikatsiyaning namoyon bo'lishi yoki ta'sir ko'rsatish qobiliyati", - deb ta'riflanadi. Demak,o'quvchilarning bilim va ko'nikmalarini rivojlantirishda va baholashda avvalambor ularga barcha fan va darsliklardan yetarlicha tushuncha bera olishimiz, shuningdek ularni ilmga bo'lgan qiziqishini ortirish uchun turli metod va usullardan o'rinli foydalana olishimiz zarur. Ayniqsa, hozirda rivojlangan mamlakatlar qatorida bizning yurtimizda ham Xalqaro baholash dasturidan oqilona foydalanilmoqda. Buni biz barcha o'quv fanlar kesimida ko'rishimiz mumkin. Misol sifatida, matematika darslarida berilayotgan masala va misollarning o'mi o'uvchilarning bilim va salohiyatini baholashda katta ahamiyatga ega.Masalalarni yechish matematika fanini o'qitishning muhim tarkibiy qismidir Masalalarni yechmasdan matematika fanini o'zlashtirishni umumman tasavvur qilib bo‘lmaydi. Matematika darslarida masalalar yechish nazariyani amaliyotga tadbiq etishning eng kerakli va ravon yo'lidir. Faqatgina quruq matematik nazariya va uning tadbiqlarisiz uzoqqa bora olmaydi. Lekin shuni alohida ta'kidlash joizki, matematika fanining har bir mantiqiy qoidasining albatta amaliyotdagi o'rni mavjud. Bu mavjudlikni tadbiqlari faqatgina matematik masalalar yordamida yuzaga chiqishi mumkin. Sodda va murakkab masalalar, bilimlarni o'zlashtirishga, olingan bilimlarni mustahkamlash va mukamallashtirishga shuningdek bolalarning bilimlarini oqilona baholashga xizmat qiladi. Matematik masalalar bolalarning fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishning foydali vositasi bo'lib, odatda o'z ichiga "yashirin informatsiya" ni ham oladi. Bu muamoni hal etish masala yechuvchidan taklif, tahlil va sintez, mustaqil murojaat qilish, faktlarni taqqoslash, imumlashtirish fikrlash va boshqalarni talab etadi. Masalalarni yechishda matematika faniga bo'lgan qiziqish oshadi. Mustaqilik, erkinlik, talabchanlik, mehnatsevarlik, maqsadga intilish kabi xislatlar ham rivojlanadi. Bundan tashqari boshlang'ich sinf o'quvchilarinig dunyo qarashi,fikrlashi va

tezkor yodga olish hususiyatlarini rivojlantirish uchun mantiqiy masalalarning o'mi beqiyos. Mantiqiy masalalar orqali pedagoglar o'quvchilarning haqiqiy bilim va ko'nikmasini baholash mumkin deb hisoblanadi, chunki mantiqiy masalalarga o'quvchilar o'zlari shaxsiy yondashadilar va javobini aniqlashga turli hil yo'llardan foydalanishadi. Natijada, bolalarning asl bilimi baholanadi va rag'batlantiriladi. Misol uchun 1-sinf matematika darsligida berilayotgan misol va masalalarga to'xtalib o'tadigan bo'lsak, darslik to'plamlarga oid misollardan boshlanib, ular orqali o'quvchilar har bir predmet, buyum,narsaning o'z xossasi, turi, xususiyati, o'rni borligini anglashadi, shuningdek ularni hayotda o'z o'rnida qo'llay olish qobiliyatiga ega bo'la boshlaydilar. Masalalarning o'ziga xos xususiyati esa avvalo, chuqur fikrlashga, targ'ib etishga undashligida deb olamiz. Yana bir asosiy tomoni uning shartida mujassam bo'lgan bo'lib, unda keltirilayotgan turli buyum, anjomlar, ish qurollari, avtomashinalar, oziq-ovqat, meva-sabzavotlar, uy va yovvoyi hayvonlar orqali yanada hayotiy va tushunarli holatda berilishi va jonli tarzda turli surat va ta'riflar bilan aniq tushuntirilishida hisoblanadi. Ular orqali o'quvchilar shartni ko'z oldida gavdalantirishadi, real hayotdan olgan holda eslaydilar va yechimlarini izlab topishga harakat qilishadi. Biz bunga barcha sinf matematika darsliklaridan, shuningdek boshlang'ich maematika darsliklaridan misol keltira olamiz.

1.Salim kutubxonadan 4 ta darslik va 2 ta ertak kitobi oldi.U nechta kitobni oldi.U nechta kitobni kutubxonaga qaytarishi kerek?

Yechish: 4+2=6

Bizda savol tug`ilishi mumkin, nima uchun bu masalani mantiqiy deb olamiz.chunki o'quvchi. bu masalada mantiqqa tayanadi ya'ni 6ta kitob olgani aniq, ammo nechta kitob qaytarilishini to'g'ridan-to'g'ri o'ylab ayta olmasligi ham mumkin. Qachonki bola bu savolga aniq va o'ylanmay to'g'ri javob bersa, bilamizki bu o'quvchi yahshi bahoga loyiq va tushunchaga ega.

Javob: 6ta

2 Shirinning 5000 so'm puli bor. U bu puliga narxi 450so'm bo'lgan muzqaymoqdan ko'pi bilan nechta sotib olishi mumkin?Shunda Shirinnig puli yana qancha ortib qoladi?

Yechish:5000/450-14950-50/450-11+50/450

Demak. Shirin 450 so'mdan 11ta muzqaymoq sotib olgan va unda 50so'm pul ortib qolgan.

Javob: Shirinning 11ta muzqaymoq sotib olishi mumkin va 50 so'm puli ortib qoladi.
3. Ikki kunda 220kg qulupnay terildi. Ikkinchi kun birinchi kunga qaraganda 3marta ko'p qulupnay terildi. Birinchi kun qancha qulupnay terilgan bo'ladi? Yechish: Birinchi kun terilgan qulupnay massasini x bilan belgilaymiz. Unda masala shartiga ko'ra,ikkinchi kuni terilgan qulupnay massasi 3x ga teng bo'ladi va uning yig'indisi 220ga teng hisoblanadi.

Demak. x+3x=220, x=220/4, x=55. Javob: 1-kuni 55kg qulupnay terilgan.

1-kun: x

2-kun: 3x Jami: 220kg.

x+3x=220

4x-220

x=220/4

x=55

Javob:55kg

Yuqorida aytib o'tilganidek, jamiyat rivojlanishining har bir bosqichida masalaning roli va uning o'rniga har xil baho berib kelingan. Hozirgi davrda masala yoki misollar yechish orqali matematik ta'lim jarayonini olib borishning metodik usul va vositalari ishlab chiqilgan va bu usullar haqida ko'pgina ilmiy metodik va didaktik adabiyotlarda ma'lumotlar berilgan Matematik tushunchani masala yoki misollar yordamida kiritish va uning tub mohiyatini o'quvchilarga tushuntirish murakkab bo'lgan pedagogik jarayon hisoblanadi. Shuning uchun ham bir maktab o'qituvchisi dars jarayonida ishlatiladigan masalani tanlash yoki uni tuzishda juda ham ehtiyot bo'lmog'i shart. Tuzilgan masalalarni dars jarayonida qo'llanish ana shu o'quvchilarning o'zlashtirish qobiliyatlarini hisobga olgan holda bo'lishi kerak. Har bir dars jarayonida ishlatiladigan masala yoki misol darsning maqsadiga mos kelishi kerak va bu masalalar orqali o'quvchilarni to'g'ri baholay olish qobilyatiga ham ega bo‘lish lozim. Agar darsda o'qituvchi o'quvchilarga biror yangi

matematik tushunchani o‘rgatmoqchi bo‘lsa, tuziladigan masala yoki misol ana shu tushuncha mohiyatini ochib beruvchi xarakterda bo'lishi kerak. Yuqorida aytib o'tilganidek, jamiyat rivojlanishining har bir bosqichida masalaning roli va uning o‘rniga har xil baho berib kelingan. Hozirgi davrda masala yoki misollar yechish orqali matematik ta'lim jarayonini olib borishning metodik usul va vositalari ishlab chiqilgan va bu usullar haqida ko'pgina ilmiy metodik va didaktik adabiyotlarda ma'lumotlar berilgan. Matematik tushunchani masala yoki misollar yordamida kiritish va uning tub mohiyatini o'quvchilarga tushuntirish murakkab bo'lgan pedagogik jarayon hisoblanadi. Shuning uchun ham bir maktab o'qituvchisi dars jarayonida ishlatiladigan masalani tanlash yoki uni tuzishda juda ham ehtiyot bo'lmog'i shart. Tuzilgan masalalarni dars jarayonida qo'llanish ana shu o'quvchilarning o'zlashtirish qobiliyatlarini hisobga olgan holda bo'lishi kerak. Har bir dars jarayonida ishlatiladigan masala yoki misol darsning maqsadiga mos kelishi kerak va bu masalalar orqali o'quvchilarni to‘g‘ri baholay olish qobilyatiga ham ega bo'lish lozim. Agar darsda o'qituvchi o'quvchilarga biror yangi matematik tushunchani o'rgatmoqchi bo'lsa, tuziladigan masala yoki misol ana shu tushuncha mohiyatini ochib beruvchi xarakterda bo'lishi kerak.

**Xulosa:** Ushbu mavzu yuzasidan olib borilgan ilmiy izlanishar yakunida shunday xulosaga kelindi: Boshlang'ich matematika kursida asosiy o'rin egallagan mantiqiy masala va misollar juda muhim vazifani bajaradi. Ular o'quvchilarda mantiqiy fikrlash, analiz va sintez qilish, umumlashtirish. qaralayotgan hodisalar orasidagi bog'lanishlarni ochib berish malakasini o'stiruvchi asosiy vosita bo‘lib xizmat qiladi va ularni ko'nikmalarini baholash uchun o'qituvchilarga qulay sharoit yaratib beradi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini mantiqiy masalalar yechishga o'rgatishning ahamiyati ular ustida ish olib borish metodikasiga ham bog'liq. Bu o'z navbatida boshlang'ich sinf o'qituvchisidan yuqori bilim saviyasi, puxta malaka va mahoratni talab etadi. Boshlang'ich sinf o'qituvchilanning matematika darslarmi kuzatish jarayonida mantiqiy masalalar yechishning zaruriyati o'quvchilarning kompitensiyalarini baholashda va rivojlantirishda juda ham yuqori o'rin egallashiga yana bir bor guvoh bo'ldim.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR


1. L.V.Repyova, Matematika. (Umum o'rta ta'lim maktablarining 1-sinfi uchun darslik, 1-qism) -Toshkent.:Novda, 2023, 78-bet

2. Jumayev ME. va boshqalar. Matematika o'qitish metodikasi (kasb-hunar kollejlari o'quvchilari uchun o'quv qo'llanma) - T.: Ilm-Ziyo, 2003, 240-bet

3. Jumayev M.E. Matematika o'qitish metodikasidan praktikum - Toshkent: O'qituvchi, 2004,

4. Mirhojiddinovna, J. D., Shavkatovna, A. M., & Alijonovna, M. D. (2022). Lingupoetic Features Of Unconventional Combinations And Agricultural Terms In Literary Texts. Journal of Positive School Psychology, 6(11), 1599-1604.

5. Abdulxayeva, M. (2023). ONA TILI VA O ‘QISH SAVODXONLIGI DARSLARIDA DIDAKTIK METODLARNING TUTGAN O ‘RNI. Scienceweb academic papers collection.

6. Musharrafa, A. (2023). Relationship of Mother Language and Reading Literacy with Natural Science. World of Science: Journal on Modern Research Methodologies, 2(3), 78-82.

7. Abdulkhayeva, M. The Role of Dictations in the Development of Students' Written Speech in the First Class. International Journal of Innovative Research in Science, Engineering and Technology.

8. Abdulxayeva, M. (2023). O‘Z DIKTANT YOKI YODDAN YOZUV DIKTANTI. Interpretation and researches, 1(1).

9. Abdulxayeva, M. (2023). AKTdan foydalangan holda diktant olish metodikasi. Scienceweb academic papers collection.

10. Musharraf, A. (2023). EDUCATIONAL DICTATION AND ITS TYPES. Open Access Repository, 9(6), 211-216.

11. Abdulhayeva, M. (2023). EDUCATIONAL DICTATION AND ITS TYPES. NOVATEUR PUBLICATIONS JournalNX-A Multidisciplinary Peer ReviewedJournal.

12. Isaboyeva, D. (2023). THE ROLE OF THE NATIONAL IDEA AND

IDEOLOGY IN THE PROCESS OF GLOBALIZATION. Science and innovation in the education system, 2(12), 133-137.

13. Alijonovna, M. D., & Gozalkhan, Y. (2022). IMPLEMENTATION OF INTERDISCIPLINARITY IN THE TEACHING OF READING AND NATURAL SCIENCES. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 10(12), 1628-1632.

14. Go'zalkhan, Y. (2023). METHODOLOGY OF TEACHING SCIENCE IN PRIMARY GRADES. Conferencea, 18-21.

15. Sabirjankizi, M. S., Salimovna, V. M., Abramovich, R. Z., & Rakhmonovna, N. G. (2022). WOMEN'S AND YOUTH EMPLOYMENT AS AN URGENT PROBLEM OF SOCIAL PEDAGOGY. International Journal of Early Childhood Special Education, 14(7).

16. Alijonovna, M. D., & Gozalkhan, Y. (2022). IMPLEMENTATION OF INTERDISCIPLINARITY IN THE TEACHING OF READING AND NATURAL SCIENCES. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 10(12), 1628-1632.

17. Alijonovna, M. D. (2023). Terms-language wealth. INTERNATIONAL JOURNAL OF INCLUSIVE AND SUSTAINABLE EDUCATION, 2(3), 58-62.